

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQUISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARINING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIIY TURISTIK KLASTERTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	
МЕТОДЫ СИСТЕМ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	259
Н. М. Эргашева	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	265
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich	
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASHDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISHNING O'RNI.....	271
Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
ТЕНДЕНЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТАДЖИКИСТАНА ЗА 35 ЛЕТ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ	276
Икромни Нуриддин Киём	
Раҳматзода Далер Талбак	
YANGI O'ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SANOATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI	283
Farog'at Xo'jabekova	
MINTAQADA AGROTURIZMNI XORIJIY TAJRIBA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: XALQARO MODELLAR VA O'ZBEKISTON UCHUN INNOVATSION MEXANIZMLAR.....	288
Aliqulov Humoyun Tohir o'g'li	
KICHIK BIZNESDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-BOSHQARUV MEXANIZMI.....	294
Kabilova Shahnoza Jurayevna	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISH	301
Parpiboyeva Lobar Abdikomilovna	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARNI MOLIYALASHTIRISHNING TAHLILI	308
Abduraxmanov Farrux Talipjanovich	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENSIYALARI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI TAHLILI	316
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALI VA MEHNAT MUNOSABATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI, MOHIYATI VA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	323
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	
MILLIY YASHIL TAKSONOMIYANING O'ZBEKISTONDA YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	329
Usmonova Gulasal Akmal qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOB TIZIMINI ISLOH ETISHNING ASOSIY BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	334
Bekimbetova Asal Ergash qizi	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК: ОТ ТРАДИЦИОННЫХ ТЕНДЕРОВ К ЭЛЕКТРОННЫМ ПЛАТФОРМАМ	340
Ризакулов Шерзод Шермуратович	
TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARNI KREDITLASH AMALIYOTINING EKONOMETRIK PROGNOZI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	346
Jumayev Azamat Qurbonali o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARIGA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH MEXANIZMLARI	352
Ro'ziboyev Shuxrat Komilovich	
ADVOKATLIK XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	360
Turayev Shaxriyor Shodiyorovich	



ADVOKATLIK XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Turayev Shaxriyor Shodiyorovich

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi

Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi bosh buxgalteri,

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: shahriyorturayev990@gmail.com

Annotatsiya. Advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholashning nazariy va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Advokatlik xizmatlari nafaqat huquqiy himoya va maslahat berish funksiyalarini bajarishi, balki xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi, xizmat ko'rsatish xarajatlari hamda mijozlar qoniqishi bilan bog'liq iqtisodiy natijalarni shakllantirishi asoslangan. Amaldagi baholash yondashuvlarining mavjud cheklovlaridan kelib chiqib, advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini moliyaviy, tashkiliy, mehnat samaradorligi, xizmat sifati, mijozlar natijadorligi va raqamli samaradorlik ko'rsatkichlari asosida kompleks baholash metodikasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: advokatlik xizmatlari, iqtisodiy samaradorlik, xizmat sifati, xarajatlar, daromadlilik, mehnat unumdorligi, mijozlar qoniqishi, raqamlashtirish, integral indeks, samaradorlikni baholash.

Аннотация. Исследованы теоретические и методологические аспекты оценки экономической эффективности адвокатских услуг. Обосновано, что адвокатские услуги не только выполняют функции правовой защиты и консультирования, но и формируют экономические результаты, связанные с финансовой устойчивостью субъектов, оказывающих услуги, эффективностью использования трудовых ресурсов, затратами на оказание услуг и удовлетворённостью клиентов. С учётом существующих ограничений действующих подходов предложена методика комплексной оценки экономической эффективности адвокатских услуг на основе показателей финансовой, организационной и трудовой эффективности, качества услуг, результативности для клиентов и цифровой эффективности.

Ключевые слова: адвокатские услуги, экономическая эффективность, качество услуг, затраты, доходность, производительность труда, удовлетворённость клиентов, цифровизация, интегральный индекс, оценка эффективности.

Abstract. The theoretical and methodological aspects of assessing the economic efficiency of legal services are examined. Legal services are substantiated as performing not only the functions of legal protection and consultation but also as generating economic outcomes associated with the financial sustainability of service providers, the efficiency of labor resource utilization, service delivery costs, and client satisfaction. Considering the existing limitations of current assessment approaches, a comprehensive methodology for evaluating the economic efficiency of legal services is proposed based on indicators of financial, organizational, and labor efficiency, service quality, client outcomes, and digital efficiency.

Keywords: legal services, economic efficiency, service quality, costs, profitability, labor productivity, client satisfaction, digitalization, integral index, efficiency assessment.

KIRISH

Bugungi kunda xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgan sharoitda professional xizmatlarning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayonda huquqiy xizmatlar, xususan, advokatlik xizmatlari fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquqiy xavflarni kamaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim institutsional vazifani bajaradi. Shu bilan birga, advokatlik xizmatlarining rivojlanishi xizmat ko'rsatish jarayonlarining samaradorligi, xarajatlarning maqbulligi, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat darajasi bilan bevosita bog'liq.

Advokatlik xizmatlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning natijasi faqat moliyaviy ko'rsatkichlarda emas, balki mijozlarning huquqiy manfaatlari himoyalanganligi, nizolarning samarali hal etilishi, huquqiy



xavflarning oldini olish va mijozlar ehtiyojlarining qondirilishida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli, advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini daromad, xarajat va foyda ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, faoliyatning boshqa natijadorlik ko'rsatkichlari asosida ham baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat advokatlik xizmatlari samaradorligini baholashning iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va sifat ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtirgan kompleks metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Hozirgi sharoitda advokatlik faoliyatiga raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi ham samaradorlikni baholash yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Elektron hujjat aylanishi, masofaviy maslahat xizmatlari, huquqiy axborot tizimlari, mijozlar bilan raqamli aloqa vositalari hamda ishlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish advokatlik xizmatlarini ko'rsatish vaqtini qisqartirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, raqamlashtirish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy samarani ham umumiy baholash tizimiga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun qulay huquqiy muhit yaratish, aholining huquqiy himoyasini kuchaytirish va professional xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar advokatlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayon advokatlik tashkilotlari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, xizmat xarajatlarini optimallashtirish, inson kapitalidan samarali foydalanish va mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish modelini shakllantirishni talab etadi. Shu jihatdan, advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirish masalasi nafaqat alohida advokatlik tashkilotining moliyaviy natijalarini aniqlash, balki xizmatlarning umumiy natijadorligini kompleks baholash nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Bunda moliyaviy samaradorlik bilan bir qatorda, mehnat unumdorligi, xarajatlar samaradorligi, xizmat sifati, mijozlar qoniqishi va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini hisobga olish maqsadga muvofiq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi xorijiy tadqiqotlarda asosan xizmat ko'rsatish jarayonlarining unumdorligi, inson kapitalidan foydalanish, texnik samaradorlik va mijozga yaratiladigan qiymat nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Xorijlik olimlardan Wang [1], Kop va Hill [2], Banker [3], Curran va Crockett [4], o'zbekistonlik tadqiqotchilardan esa R. Kurbanova [5], X. Ulashev [6], M. Erdonov [7] va Sh. Nazarova [8] tomonidan advokatlik xizmatlarining iqtisodiy jihatlari, avvalo, ularni tashkil etish, xizmat haqlarini shakllantirish, buxgalteriya hisobida aks ettirish va moliyaviy boshqarish masalalari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Mazkur natijalar advokatlik xizmatlari va xizmatlar samaradorligini baholashda raqamli samaradorlik ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili advokatlik xizmatlari samaradorligini baholashning alohida jihatlari xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda o'rganilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, **moliyaviy samaradorlik, xarajatlar samaradorligi, mehnat unumdorligi, xizmat sifati, mijozlar qoniqishi va raqamli samaradorlikni yagona integral tizimda baholash** yo'nalishidagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash metodikasini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish va ilmiy natijalarga erishish jarayonida ilmiy izlanishlar olib borilib, tizimli tahlil, deduksiya va induksiya, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi metod hamda usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda mazkur faoliyatning iqtisodiy tabiatini to'g'ri aniqlash muhim metodologik ahamiyatga ega. Advokatlik xizmati moddiy mahsulotdan farqli ravishda bevosita ishlab chiqarilmaydi va omborga jamlanmaydi, balki mijozning muayyan huquqiy ehtiyojini qondirish jarayonida shakllanadi. Shu sababli, uning iqtisodiy natijasi xizmat ko'rsatish jarayoniga jalb qilingan mehnat, vaqt, bilim, axborot va tashkiliy resurslarning yakuniy huquqiy natija bilan nisbatida namoyon bo'ladi. Demak, advokatlik xizmatlari samaradorligini baholashda "sarflangan resurslar – ko'rsatilgan xizmat – erishilgan natija" uchligi o'rtasidagi funksional bog'liqlik asosiy metodologik mezon sifatida qaralishi lozim.

Mazkur yondashuv advokatlik faoliyatini oddiy xizmat ko'rsatish jarayonidan farqlovchi jihatlarni hisobga olish imkonini beradi. Xususan, bir xil vaqt va mehnat sarfi asosida bajarilgan ikki huquqiy ishning iqtisodiy qiymati bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Murakkab sud ishi, korporativ nizoni hal etish yoki yirik xo'jalik shartnomasini huquqiy ekspertizadan o'tkazish oddiy maslahat xizmatiga nisbatan yuqori malaka, ko'proq vaqt va axborot resurslarini talab qiladi. Shuning uchun samaradorlikni bajarilgan ishlar soni bilan bir



qatorda, ularning murakkablik darajasini hisobga olgan holda aniqlash metodik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Advokatlik xizmatlari iqtisodiy samaradorligining mazmunini chuqurroq ochib berish uchun uni uchta o'zaro bog'liq darajada ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: **operatsion samaradorlik, iqtisodiy natijadorlik va mijoz uchun yaratilgan qiymat**. Operatsion samaradorlik xizmatni ko'rsatish uchun sarflangan vaqt va resurslardan foydalanish darajasini ifodalaydi. Iqtisodiy natijadorlik daromad, xarajat, foyda va xizmatning rentabelligi orqali namoyon bo'ladi. Mijoz uchun yaratilgan qiymat esa huquqiy xavfning kamayishi, nizoning hal etilishi, huquqiy manfaatning himoyalaniishi va kelgusidagi yo'qotishlarning oldini olish orqali shakllanadi (1-jadval).

1-jadval

Advokatlik xizmatlari samaradorligini shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy komponentlar¹

Komponent	Mazmuni	Baholash yo'nalishi
Resurs samaradorligi	Mehnat, vaqt va axborot resurslaridan foydalanish	Resurs sarfining maqbulligi
Operatsion samaradorlik	Ishlarni bajarish jarayonining tezkorligi	Vaqt va ish hajmi nisbati
Iqtisodiy natijadorlik	Daromad va foydaning shakllanishi	Xarajat va moliyaviy natija nisbati
Huquqiy natijadorlik	Mijozning huquqiy manfaatlarini ta'minlash	Ishning huquqiy natijasi
Mijoz qiymati	Mijozning iqtisodiy va huquqiy manfaatlari	Oldi olingan zarar va xavflar
Barqarorlik	Kelgusidagi xizmatlar va daromadlarning davomiyligi	Mijozlarni saqlab qolish va takroriy murojaatlar

Mazkur komponentlarning o'zaro bog'liqligi advokatlik xizmatlari samaradorligini bir martalik moliyaviy natija sifatida emas, balki uzluksiz iqtisodiy jarayon sifatida baholash imkonini beradi. Masalan, xizmatni ko'rsatish uchun sarflanadigan vaqtni maqbullashtirish bevosita mehnat xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa xizmat tannarxini maqbullashtirish va rentabellikni oshirishga xizmat qiladi. Ish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi vaqt sarfini qisqartirib, bir xil resurslar yordamida ko'proq xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, advokatlik xizmatlari samaradorligini baholashda **vaqt unumdorligi** alohida ko'rsatkich sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq. Uni quyidagicha aniqlash mumkin

$$VU = \frac{Q}{T} \quad (1)$$

bu yerda: VU – vaqt unumdorligi; Q – ma'lum davrda bajarilgan huquqiy ishlarning shartli hajmi; T – ushbu ishlarni bajarishga sarflangan jami ish vaqti.

Bunda ishlarning murakkabligi turlicha ekanligini hisobga olish zarur. Shu sababli, bajarilgan ishlar sonini oddiy arifmetik yig'indi sifatida emas, balki **murakkablik koeffitsiyenti** orqali tortilgan hajm sifatida hisoblash taklif etiladi:

$$Q_s = \sum_{i=1}^n q_i k_i \quad (2)$$

bu yerda: Q_s – ishlarning shartli hajmi; q_i – i -turdagi bajarilgan ishlar soni; k_i – i -turdagi ishning murakkablik koeffitsiyenti; n – xizmat turlari soni.

Mazkur yondashuv advokatlik xizmatlari samaradorligini baholashda **turli murakkablikdagi ishlarni yagona birlik asosida hisobga olish imkonini** yaratadi. Natijada advokatning yoki advokatlik tashkilotining haqiqiy ish yuklamasi va mehnat unumdorligini yanada aniqroq baholash imkoniyati yuzaga keladi.

Advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda yana bir muhim jihat – **xizmatning haqiqiy iqtisodiy qiymatini aniqlash** masalasidir. An'anaviy hisob-kitoblarda xizmat qiymati ko'pincha mijoz tomonidan to'langan haq miqdori bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, ayrim huquqiy xizmatlar mijoz uchun to'langan haqdan bir necha barobar yuqori iqtisodiy natija yaratishi mumkin. Masalan, shartnomani huquqiy ekspertizadan o'tkazish orqali kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan katta moliyaviy zararlarning oldi olinadi. Shu sababli, xizmatning iqtisodiy samarasi nafaqat olingan daromad, balki **oldi olingan potensial yo'qotishlar** bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

1 Muallif ishlanmasi



Advokatlik xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri **ish vaqtini boshqarish** hisoblanadi. Advokatlik faoliyatida hujjatlarni tayyorlash, sud jarayonlariga tayyorgarlik ko'rish, huquqiy axborotni izlash, mijoz bilan maslahatlashish va boshqa operatsiyalarga sarflanadigan vaqt xizmat tannarxiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, xizmat birligiga to'g'ri keladigan vaqt sarfini aniqlash va uning optimal darajasini belgilash zarur.

Bunda:

$$VT = \frac{T}{Q_s} \quad (3)$$

bu yerda: VT – bir birlik xizmatga to'g'ri keladigan vaqt; T – jami sarflangan vaqt; Q_s – murakkablik koeffitsiyenti bilan hisoblangan xizmat hajmi.

Ushbu ko'rsatkichning kamayishi xizmat ko'rsatish jarayonining operatsion samaradorligi oshganligini bildiradi.

Advokatlik xizmatlari iqtisodiy samaradorligini baholashda **mijozni jalb qilish va saqlab qolish xarajatlarini** ham hisobga olish zarur. Yangi mijozni jalb qilish uchun sarflangan reklama, kommunikatsiya, maslahat va boshqa xarajatlar kelgusidagi daromadlar bilan qoplanishi kerak. Shu sababli, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish advokatlik tashkilotining iqtisodiy samaradorligini oshiruvchi omil sifatida qaraladi.

Bunda mijozning iqtisodiy qiymatini:

$$MQ = \sum_{i=1}^n \frac{D_t - X_t}{(1+r)^t} \quad (4)$$

formula orqali baholash mumkin.

Bu yerda: MQ – mijozning tashkilot uchun iqtisodiy qiymati; D_t – t-davrdagi mijozdan olinadigan daromad; X_t – mijozga xizmat ko'rsatish xarajatlari; r – diskontlash stavkasi; n – hisoblash davri.


Mazkur ko'rsatkich advokatlik tashkilotining nafaqat joriy daromadlarini, balki mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikdan olinadigan iqtisodiy natijani ham hisobga olish imkonini beradi.

Shuningdek, advokatlik xizmatlari samaradorligiga **huquqiy risklarni boshqarish** ham ta'sir ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish jarayonida huquqiy maslahatlarning aniqligini ta'minlash, hujjatlarni sifatli tayyorlash va protsessual muddatlarga rioya etish qo'shimcha xarajatlar hamda reputatsion yo'qotishlarning oldini olish imkonini beradi. Shu sababli, samaradorlik metodikasida risk omilini ham hisobga olish lozim.

Mazkur yondashuv advokatlik tashkilotining real iqtisodiy natijasini aniqlash imkonini beradi, chunki nominal foyda bilan bir qatorda, kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, takomillashtirilgan metodikada advokatlik xizmatlari samaradorligini baholashda **ishlar soni va foyda miqdori bilan bir qatorda, xizmatning murakkabligi, sarflangan vaqt, resurslar qiymati, mijoz uchun yaratilgan iqtisodiy qiymat va risklarning kamayishi** ham hisobga olinishi lozim.

Mazkur yondashuv quyidagi ilmiy-mantiqiy zanjir orqali ifodalanadi (1-rasm):



1-rasm. Advokatlik xizmatlari iqtisodiy samaradorligini shakllantirish modeli²

Natijada advokatlik xizmatlari samaradorligini baholash metodikasining asosiy mazmuni “qancha xizmat ko'rsatildi?” degan oddiy savoldan “sarflangan resurslar hisobiga qanday iqtisodiy va huquqiy qiymat

2 Manba: muallif ishlanmasi



yaratildi?” degan kompleks yondashuvga o'zgaradi. Aynan ushbu yondashuv advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini obyektiv baholash, xizmat narxini asoslash, xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini oshirish uchun metodik baza yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda mazkur faoliyatning xizmat ko'rsatish xususiyatlari, intellektual mehnatga asoslanganligi va mijoz uchun yaratiladigan iqtisodiy qiymatni hisobga olish zarur. An'anaviy baholashda daromad, xarajat va foyda asosiy mezon sifatida qaralsa-da, advokatlik xizmatlarining haqiqiy natijadorligini yanada to'liq ifodalash uchun qo'shimcha ko'rsatkichlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Shu sababli, samaradorlikni baholashda resurslardan foydalanish, sarflangan vaqt, ishlarning murakkabligi, huquqiy natija va mijoz uchun yaratilgan qiymat o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda advokatlik xizmatlarining samaradorligini baholashni takomillashtirish uchun xizmatlar hajmini ishlarning murakkablik darajasiga moslashtirib hisoblash yondashuvi taklif qilindi. Bunday yondashuv oddiy va murakkab huquqiy ishlarni yagona mezon asosida baholash imkoniyatini kengaytirib, advokatlarning real ish yuklamasi va mehnat unumdorligini aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, advokatlik xizmatlari samaradorligini baholashda vaqt unumdorligi muhim ko'rsatkich sifatida belgilandi. Xizmatni bajarishga sarflangan vaqtning qisqarishi bir xil resurslar asosida ko'proq xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi. Shu jihatdan, ish vaqtini boshqarish, huquqiy axborotni izlash va hujjatlarni tayyorlash jarayonlarini optimallashtirish advokatlik tashkilotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim ichki rezervlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida advokatlik xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi **takliflar** ishlab chiqildi:

1. Advokatlik xizmatlarini baholashning ko'p mezonli tizimini joriy etish. Bunda daromad va foyda bilan bir qatorda, vaqt sarfi, ishlarning murakkabligi, mehnat unumdorligi, mijoz uchun yaratilgan iqtisodiy qiymat va huquqiy risklarning kamayishi ham hisobga olinishi lozim.

2. Ishlarning murakkablik koeffitsiyentlarini ishlab chiqish. Advokatlik xizmatlarini oddiy, o'rta va murakkab toifalarga ajratish hamda har bir toifa uchun tegishli koeffitsiyent belgilash orqali xizmatlar hajmini yanada obyektiv hisoblash mumkin.

3. Vaqtga asoslangan samaradorlik monitoringini yo'lga qo'yish. Har bir huquqiy xizmat turi bo'yicha sarflangan vaqtning elektron qayd etish va uning me'yoriy vaqt bilan farqini aniqlash xizmat tannarxini optimallashtirish imkonini beradi.

4. Mijoz uchun yaratilgan iqtisodiy qiymatni baholashni joriy etish. Advokatlik xizmatining natijasi nafaqat xizmat haqi bilan, balki mijozning potensial moliyaviy yo'qotishlari va huquqiy xavflarini kamaytirish orqali yaratilgan qiymat bilan ham baholanishi kerak.

5. Riskka moslashtirilgan samaradorlik ko'rsatkichlaridan foydalanish. Advokatlik xizmatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy va operatsion risklarni aniqlash hamda ularning kutilayotgan xarajatlarini hisobga olish tashkilotning real iqtisodiy natijasini aniqlash imkonini beradi.

6. Raqamli texnologiyalar samaradorligini alohida baholash. Elektron hujjat aylanishi, huquqiy axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan ish jarayonlari natijasida tejalgan vaqt va kamaygan xarajatlarni aniqlash orqali raqamlashtirishning iqtisodiy samarasini hisoblash maqsadga muvofiq.

7. Samaradorlik ko'rsatkichlarini boshqaruv qarorlari bilan bog'lash. Baholash natijalari nafaqat statistik yoki moliyaviy hisobot uchun, balki xizmat narxini belgilash, xodimlar ish yuklamasini taqsimlash, xarajatlarni optimallashtirish va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda ham qo'llanilishi lozim.

Umuman olganda, taklif etilgan metodika advokatlik xizmatlari samaradorligini **resurs sarfi, vaqt, ish hajmi, xizmat qiymati, huquqiy natija va mijoz uchun yaratilgan iqtisodiy qiymat** o'rtasidagi bog'liqlik asosida baholash imkonini beradi. Bu yondashuv samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash va advokatlik xizmatlarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wang W. Evaluating the technical efficiency of large U.S. law firms // *Applied Economics*. — 2000. — Vol. 32, No. 1. — P. 35–43. — URL: <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/000368400322309>
2. Kop R., Hill A. Connectivism: Learning theory of the future or vestige of the past? // *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*. — 2008. — Vol. 9, No. 3. — URL: <https://www.irrodl.org/index.php/irrodl/article/view/9.3.4>



3. Banker R. D., Chang H., Natarajan R. Productivity change, technical progress, and relative efficiency change in the U.S. legal services industry // *Management Science*. — 2006. — URL: <https://pubsonline.informs.org/doi/10.1287/mnsc.1050.0486>
4. Curran L., Crockett P. Measuring the quality of legal services // *University of Tasmania Law Review*. — 2013. — Vol. 32, No. 2. — URL: <https://classic.austlii.edu.au/au/journals/UTasLawRw/2013/4.html>
5. Kurbanova R., Umurzoqova S. Xizmat ko'rsatish korxonalarini innovatsion modernizatsiyalashda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash metodini takomillashtirish // *Green Economy and Development*. — 2024. — URL: <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/2196>
6. Ulashev X. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari // *Green Economy and Development*. — 2026. — Vol. 4, No. 1. — URL: <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/8840>
7. Erdonov M. Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari // *Green Economy and Development*. — 2024. — Vol. 2, No. 1. — URL: <https://www.green-eco.uz/index.php/GED/article/view/879>
8. Nazarova Sh. Xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar // *ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research*. — 2024. — Vol. 1, No. 5. — P. 305–309. — URL: <https://inlibrary.uz/index.php/aijmr/article/view/63405>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>